

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 005.72:796(575.1)

YULDOSHEV ULUG‘BEK ASQAR O‘G‘LI

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA BOSHQARUV TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISHDA DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK
MEXANIZMIDAN FOYDALANISH**

08.00.13 – “Menejment”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar:
Axmedov Ikrom Akramovich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Toshkent –2025

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI.....	13
1.1. Jismoniy tarbiya va sport sohasini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqaruvning zaruriyati va mazmun-mohiyati.....	13
1.2. Jismoniy tarbiya va sport sohasini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqaruvning tashkiliy va huquqiy asoslari.....	28
1.3. Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida boshqaruvni xorijiy mamlakatlar tajribalari va ulardan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari.....	38
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	51
II BOB. JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA BOSHQARUVNI RIVOJLANISH HOLATI TAHLILI.....	53
2.1. Davlat-xususiy sheriklik asosida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlanish tendentsiyalari.....	53
2.2. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlanish holati tahlili.....	66
2.3. Jismoniy tarbiya va sport sohasini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish holati tahlili.....	83
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	95
III BOB. JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	96
3.1. Jismoniy tarbiya va sport sohasini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqaruv istiqbollari.....	96
3.2. O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini ekonometrik modellashtirish.....	107
3.3. O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik asosida jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqaruv mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari.....	120
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	134
XULOSA	137
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	140
ILOVALAR.....	152

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida jismoniy tarbiya va sport sohasi o'zining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, shuningdek, davlat bilan xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik munosabatlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari tufayli ushbu soha jamiyatda tobora kuchli va barqaror mavqeiga ega bo'lmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, "2023–yilda dunyoning turli mamlakatlarida sport infratuzilmasi va sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish uchun umumiy qiymati 5,5 mlrd. AQSH dollari bo'lgan 50 dan ortiq ortiq davlat-xususiy sheriklik (DXSH) loyiha shartnomalari tuzilgan. Misol tariqasida, Hindistonda sport infratuzilmasini rivojlantirish hamda sog'lom turmush tarzini keng ommalashtirish maqsadida, umumiy qiymati 500 million AQSH dollariga teng bo'lgan uchta DXSH loyihasi bo'yicha kelishuvlar"¹ imzolandi. Bugungi global sharoitda jismoniy tarbiya va sport sohasini jadal rivojlantirish, sport boshqaruvi tizimida uchraydigan tizimli muammolarni bartaraf etish, aholining muntazam sport bilan shug'ullanishiga shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, sog'lom hayot tarzini keng targ'ib qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu sohaga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish uchun kompleks infratuzilma barpo etish, sportchilarni xalqaro maydonda munosib ishtirok etishiga imkon beruvchi moddiy–texnik bazani mustahkamlash hamda yuqori natijalarni ta'minlovchi uzoq muddatli, tizimli va strategik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi jahon miqyosida nafaqat jamiyat hayotining muhim yo'nalishi, balki iqtisodiy barqarorlik va innovatsion taraqqiyot uchun strategik ahamiyatga ega sohalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu bois ushbu sohadagi boshqaruv tizimlarini takomillashtirish, uning ijtimoiy vazifalarini samarali bajarish va iqtisodiy natijadorligini oshirish masalalari tadqiqotchilar e'tiborida turibdi. Sport tashkilotlari faoliyatida menejment mexanizmlarini modernizatsiya qilish, aholida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, innovatsion

¹ <https://data.worldbank.org/>

yondashuvlar asosida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va ilgʻor boshqaruv konsepsiyalarini tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa sohaning ustun jihatlarini ochib berish, uni tizimli qoʻllab-quvvatlash, samarali boshqaruv vositalarini ishlab chiqish va jismoniy tarbiya hamda sportni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari bilan chambarchas uygʻunlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda jismoniy tarbiya va sportni taraqqiy ettirishda davlat-xususiy sheriklik instituti samarali mexanizm sifatida tobora keng qoʻllanilmoqda. Ushbu sheriklik orqali davlat va xususiy sektor resurslari hamda tashabbuslari uygʻunlashib, yangi texnologiyalarni joriy etish, innovatsiyalarni amaliy hayotga tatbiq qilish va ularni tijoratlashtirish imkoniyati yaratiladi. Natijada sohani strategik surʼatlar bilan rivojlantirish uchun mustahkam zamin hosil boʻladi. Shu jihatdan, davlat-xususiy sheriklik masalasi zamonaviy sport menejmentidagi ustuvor tadqiqot yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Oʻzbekistonda ham jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligini chuqur oʻrganishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Ammo amalda sport infratuzilmasining yetarli darajada emasligi, normativ-huquqiy bazadagi kamchiliklar va ilmiy asoslangan modellarning yoʻqligi bu sohada davlat-xususiy sheriklikning toʻliq samarasi berishiga toʻsqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, mamlakat taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar sharoitida davlat va xususiy sektor sherikligining iqtisodiyotdagi oʻrni va ahamiyatini oshirish, mazkur sheriklikning koʻlami, shakllari, turlari va davomiyligini belgilash, uni amalga oshirishning institutsional va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish zarurati dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Bundan tashqari, qaysi sohalarda va qanday shaklda davlat-xususiy sheriklikni ustuvor amalga oshirish lozimligi, sport sohasidagi sheriklik loyihalarining samaradorligini baholash hamda ularni tatbiq etishning samarali yoʻllarini belgilash hanuzgacha yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu bois rivojlangan mamlakatlar tajribalarini oʻrganish, ulardan olingan xulosalarni milliy sharoitga moslashtirish va shu asosda jismoniy tarbiya hamda sport sohasini boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekistonda ham jismoniy tarbiya va sport sohada boshqaruv tizimi

bo'yicha davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan samarali va istiqbolli ishlar ko'lamini ko'rishimiz mumkin. Ushbu sohada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoniga muvofiq, "davlat-xususiy sheriklik asosida sohalarga qiymati qariyb 14 mlrd. dollardan iborat bo'lgan 154 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish hamda jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish"² belgilangan. Jismoniy tarbiya va sport sohasida belgilangan asosiy vazifalarni samarali hal qilish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini boshqarish mexanizmini strategik jihatdan muhim bo'lgan takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 20-oktyabrdagi PQ-3980-son "Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institusional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son "O'zbekiston Respublikasida 2024–2030 yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktyabrdagi 720-son "Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 11-avgustdagi 509-son "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish va ularni moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz sayti ma'lumotlari